

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining Reglamenti

Xalq deputatlari viloyat Kengashining

2020 yil 13 yanvardagi 1-sessiyasining

№ 1/VI-1-sonli qaroriga 1-ilova

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining

Reglamenti

I bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunuvchi shaharlardan, shuningdek shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlaridir.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalq deputatlari Kengashining reglamentiga muvofiq amalga oshiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, shuningdek o'z reglamentlariga muvofiq amalga oshiradi.

2-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlarining (bundan buyon matnda xalq deputatlari Kengashi deb yuritiladi) faoliyati masalalarni jamoa bo'lib va erkin muhokama qilishga, oshkoralikka, jamoatchilik fikrini hisobga olishga asoslanadi.

3-modda. Xalq deputatlari Kengashi o'z faoliyatining asosiy yo'nalishlarini xalq deputatlari Kengashining sessiyasida (bundan buyon matnda sessiya deb yuritiladi)

tasdiqlangan joriy, yillik yoki xalq deputatlari Kengashining vakolatlari muddatiga mo'ljallangan ish rejasi asosida belgilab oladi. Xalq deputatlari Kengashi faoliyatining asosiy yo'nalishlarini o'z ichiga oladigan xalq deputatlari Kengashining ish rejasi asosida xalq deputatlari Kengashi doimiy komissiyalarining ish rejalari tuziladi.

Xalq deputatlari Kengashining ish rejasi xalq deputatlari Kengashi deputatlari (bundan buyon matnda Kengash deputatlari deb yuritiladi), xalq deputatlari Kengashining doimiy komissiyalari (bundan buyon matnda doimiy komissiyalar deb yuritiladi), hokimlikning bo'lim va boshqarmalari, tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari takliflari, shuningdek hududiy vakillik organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tavsiyalarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi.

Xalq deputatlari Kengashining ish rejasi sessiyada qabul qilinadi va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Xalq deputatlari Kengashi ish rejasining bajarilishi uning sessiyalarida, sessiyalar oralig'ida esa uning doimiy komissiyalari majlislarida muhokama qilinadi.

Xalq deputatlari Kengashining ish rejasiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masala hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari, doimiy komissiyalar va Kengash deputatlarining taklifiga binoan sessiyada ko'rib chiqiladi. Ushbu masala yuzasidan qaror xalq deputatlari Kengashining reglamentida belgilangan tartibda qabul qilinadi.

Xalq deputatlari Kengashining ish rejasi bajarilishini tashkil etish, shuningdek doimiy komissiyalarning ish rejalari doimiy komissiyalar tomonidan o'z vaqtida ijro qilinishi uchun hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari mas'ul hisoblanadi.

4-modda. Hokim – xalq deputatlari Kengashi rahbari (raisi) xalq deputatlari Kengashining ishini tashkil etadi, xalq deputatlari Kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritiladigan masalalarni tayyorlashga umumiy rahbarlik qiladi, uning sessiyalarida raislik qiladi.

Hokim o'z faoliyati to'g'risida xalq deputatlari Kengashi oldida hisob beradi.

Xalq deputatlari Kengashining vakolat muddati – besh yil.

5-modda. Xalq deputatlari Kengashi tegishli hudud uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalarining amalga oshirilishini, joylarda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining qarorlari, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashi va hokimning qarorlari ijro etilishini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqani, aholini tegishli hududni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi.

Xalq deputatlari Kengashi tegishli hududda o'zini o'zi boshqarishning rivojlanishiga ko'maklashadi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turadi.

6-modda. Xalq deputatlari Kengashining asosiy vakolatlariga:

hokimning taqdimiga binoan hududni rivojlantirishning istiqbolga mo'ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash;

viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlarini, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlarini tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko'rib chiqish hamda qabul qilish;

viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlarining, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko'rib chiqish hamda tasdiqlash;

mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilash;

hokimni va uning o'rinbosarlarini lavozimga tasdiqlash, hokimni va uning o'rinbosarlarini lavozimdan ozod etish, ularning faoliyatiga doir hisobotlarini, shuningdek hokimlarning viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlarini tinglash;

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan hollarda hokim qarorlarini tasdiqlash;

xalq deputatlari Kengashining Ish tartibini, xalq deputatlari Kengashi doimiy va boshqa komissiyalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish;

xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish, ularning tarkibini o'zgartirish, ular ishiga doir hisobotlarni tinglash;

qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda xalq deputatlarining vakolatlarini e'tirof etish va muddatidan oldin to'xtatish, ularni javobgarlikka tortish uchun rozilik berish;

ijroiya hokimiyati bo'limlari, boshqarmalari, boshqa tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlarini tinglash;

xalq deputatlarining so'rovlarini qarab chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish;

hokimning va quyi Kengashning O'zbekiston Respublikasi qonunlariga mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish;

hokimning taqdimiga binoan hokimlik tarkibiy tuzilishini, uning xodimlari shtatlari va ish haqi fondini tasdiqlash kiradi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga, atrof muhitni muhofaza qilishga doir o'z vakolatlariga berilgan masalalarni, tashkiliy masalalar va O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq nazorat etishga doir boshqa masalalarni hal etadi.

Xalq deputatlari Kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlash, atrof muhitni muhofaza qilish, tashkiliy masalalar va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq nazorat qilish sohasidagi o'z vakolatlariga taalluqli boshqa masalalarni ham hal qiladilar.

7-modda. Xalq deputatlari Kengashi berilgan vakolatlari doirasida umum manfaatini ifodalovchi tadbirlarni o'tkazish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasining, O'zbekiston Respublikasining boshqa viloyatlari, tumanlari va shaharlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan shartnomaviy munosabatlar o'rnatishga haqlidir.

8-modda. Xalq deputatlari Kengashi o'z faoliyatini sessiyalar, doimiy va muvaqqat komissiyalar, xalq deputatlari Kengashining boshqa organlari orqali, shuningdek Kengash deputatlarining O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va xalq deputatlari Kengashining reglamentida belgilangan tartibda o'z vakolatlarini ro'yobga chiqarish yo'li bilan amalga oshiradi.

II bob. Sessiya chaqirish va o'tkazish

9-modda. «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq xalq deputatlari Kengashining asosiy ish shakli sessiyadir.

Sessiya O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan xalq deputatlari Kengashi vakolatiga kiritilgan har qanday masalani ko'rib chiqishga haqli.

10-modda. Sessiyalar hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari, u yo'qligida esa

uning o'rinbosarlaridan biri tomonidan zaruratga qarab, biroq yiliga kamida ikki marta chaqiriladi.

Sessiyalar xalq deputatlari Kengashi deputatlarining kamida uchdan ikki qismi tashabbusi bilan chaqirilishi mumkin.

11-modda. Sessiyaning kun tartibi hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari, partiyalar va deputatlar guruhleri, doimiy komissiyalar va Kengash deputatlari tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olgan holda tayyorlanadi.

Sessiya muhokamasiga kiritilayotgan eng muhim va dolzarb ahamiyatga ega masalalarni tayyorlash uchun hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari tomonidan tegishli tarmoqlar mutaxassislari hamda olimlarni jalb etgan holda ishchi guruh tashkil etilishi mumkin. Ishchi guruh masalani tayyorlash vaqtida saylovchilar, hokimlikning bo'limlari, boshqarmalari va boshqa tarkibiy bo'linmalari, shuningdek tegishli hududdagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining fikr-mulohazalarini hisobga oladi.

Sessiya muhokamasiga kiritilayotgan masalalar dastlabki tarzda tegishli doimiy komissiyalar tomonidan ko'rib chiqiladi, ular tomonidan tayyorlangan qaror loyihalari va kun tartibi bo'yicha boshqa hujjatlar hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbariga beriladi.

Sessiyada ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan masalalar sessiya kun tartibi loyihasiga ularni ko'rib chiqish navbati, har bir masalani ko'rib chiqish uchun tayyorlashga mas'ul bo'lgan doimiy komissiyalar, ma'ruzachilar (qo'shimcha ma'ruzachilar), shuningdek boshqa ma'lumotlar kiritilgan holda tuziladi.

Sessiya kun tartibi xalq deputatlari Kengashining qarori bilan tasdiqlanadi.

12-modda. Sessiyani, shu jumladan navbatdan tashqari sessiyani chaqirish haqidagi qaror hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari tomonidan qabul qilinadi.

Sessiya o'tkaziladigan vaqt, sana va joy hamda kun tartibi Kengash deputatlari e'tiboriga sessiya ochilishidan kamida yetti kun oldin yetkaziladi. Kengash deputatlariga tanishib chiqish uchun tegishli hujjatlar ham yuboriladi.

Sessiyani chaqirish to'g'risidagi xabar ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinishi mumkin.

Sessiyalar ochiq, oshkora o'tkaziladi va ommaviy axborot vositalari tomonidan yoritiladi.

Zarur hollarda xalq deputatlari Kengashi yopiq sessiya o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. Bunday qaror, agar bu haqdagi taklif hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari, doimiy komissiyalar, partiyalar yoki deputatlar guruhlaridan tomonidan kiritilgan bo'lsa, qabul qilinishi mumkin. Yopiq sessiya o'tkazish to'g'risidagi qaror Kengash deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismining ovozi bilan qabul qilinadi.

13-modda. Agar sessiyada Kengash deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, u vakolatli hisoblanadi.

Kengash deputatlarini ro'yxatga olish sessiya ochilishidan oldin va uning ishidagi har bir tanaffusdan keyin amalga oshiriladi.

Agar sessiyalarni o'tkazishga mo'ljallangan binoda elektron ovoz berish tizimidan foydalanish ko'zda tutilgan bo'lsa, har bir Kengash deputati uchun doimiy o'rin ajratiladi.

14-modda. Sessiyalar ishi davlat tilida olib boriladi va zarurat bo'lganda xalq deputatlari Kengashining qarori asosida boshqa tillarga sinxron tarjima ta'minlanadi.

15-modda. Sessiyalarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari, shuningdek tegishli hududdagi davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalarining taklif etilgan vakillari hamda boshqa shaxslar hozir bo'lishi mumkin.

Sessiyaga taklif etilgan shaxslar muhokama etilayotgan masalalar yuzasidan qaror qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega emas, shuningdek xalq deputatlari Kengashining reglamentida belgilangan tartibga rioya qilishlari va raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'ysunishlari shart.

Sessiyaga taklif qilinadigan shaxslarning soni va tarkibi hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari tomonidan hal etiladi.

Sessiyada raislik qiluvchi sessiyaga taklif etilgan shaxslar tarkibi va soni to'g'risida Kengash deputatlariga axborot beradi.

Sessiyaga taklif qilingan shaxslar uchun majlislar zalida maxsus joylar ajratiladi.

16-modda. Yangi saylangan xalq deputatlari Kengashining birinchi sessiyasi hokim tomonidan saylovdan keyin kechi bilan uch hafta muddat ichida chaqiriladi.

Birinchi sessiya Kengash keksa deputatlaridan biri tomonidan ochiladi, u xalq

deputatlari Kengashi tomonidan xalq deputatlari Kengashining rahbari tasdiqlangunga qadar sessiyani boshqaradi.

Sessiyalarda hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari, u yo'qligida esa xalq deputatlari Kengashining qaroriga yoki hokim topshirig'iga binoan mazkur xalq deputatlari Kengashining deputatlaridan biri raislik qiladi.

17-modda. Kengash deputatlarining vakolatlarini tasdiqlash to'g'risidagi viloyat saylov komissiyasining qarori yangi saylangan xalq deputatlari Kengashining birinchi sessiyasida saylovni o'tkazgan saylov komissiyasining taqdimiga muvofiq qabul qilinadi.

Bo'shab qolgan deputatlik o'rniga saylov o'tkazilganida Kengash deputatining vakolatini tasdiqlash to'g'risidagi qaror ham sessiyada saylov komissiyasining taqdimiga muvofiq qabul qilinadi.

18-modda. Sessiya o'z ishini kun tartibini tasdiqlashdan boshlaydi.

Sessiya kun tartibidagi masalalar raislik qiluvchi tomonidan bandma-band yoki butunlay ovozga qo'yilishi mumkin.

Sessiyaning kun tartibi bo'yicha taklif va mulohazalar Kengash deputatlari tomonidan og'zaki yoki yozma shaklda beriladi va sessiyada raislik qiluvchi tomonidan ularning kelib tushish tartibi bo'yicha e'lon qilinadi.

Sessiya kun tartibi bo'yicha qaror Kengash deputatlari bildirgan takliflarni hisobga olgan holda qabul qilinadi.

19-modda. Har bir sessiyani o'tkazish vaqtida Kengash deputatlari orasidan sessiya kotibi saylanadi yoki sessiya kotibiyati tuziladi.

Sessiya kotibi yoki kotibiyati:

so'zga chiquvchilarning ro'yxatini olib boradi;

deputat so'rovlarini, Kengash deputatlaridan tushadigan savollar, ma'lumotnomalar, xabarlar, arizalar, takliflar va boshqa materiallarni ro'yxatga oladi;

so'zga chiqish uchun yozilganlarning ro'yxati va tushgan materiallar haqida raislik qiluvchiga axborot beradi;

sessiya ishiga taalluqli masalalar yuzasidan Kengash deputatlariga tushuntirishlar beradi;

sessiya yakunlari yuzasidan axborot tayyorlaydi;

bayonnoma yoki stenogramma yuritilishini tashkil etadi.

Sessiyada sessiya kotibi yoki kotibiyati tomonidan tayyorlangan axborot tinglanadi.

20-modda. Sessiyada bayonnoma yoki zarur hollarda stenogramma yuritiladi. Sessiya bayonnomasi raislik qiluvchi va kotib tomonidan imzolanadi.

Sessiya bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

xalq deputatlari Kengashining nomi, sessiyaning tartib raqami (chaqiriq doirasida);

sessiyani o'tkazish vaqti, sanasi va joyi hamda sessiya kun tartibi;

hozir bo'lgan va qatnashmayotgan Kengash deputatlari soni, shuningdek taklif etilgan shaxslarning soni;

sessiyaning kun tartibi, sessiya muhokamasiga kiritilgan har bir masala yuzasidan har bir ma'ruzachi va qo'shimcha ma'ruzachining familiyasi hamda lavozimi;

muzokaralarda so'zga chiqqan, shuningdek ma'ruzachilar va qo'shimcha ma'ruzachilarga so'rovlar yo'llagan yoki savollar bergan (yozma yoki og'zaki shaklda) Kengash deputatlarining familiyalari, saylov okruglarining raqami va lavozimlari;

qabul qilingan, «yoqlayman», «qarshiman» yoki «betarafman» deb berilgan ovozlar soni ko'rsatilgan qarorlar ro'yxati.

Bayonnomada sessiya kun tartibiga qo'yilgan masalalarning mohiyati ochib beriladi, sessiya davomida so'zlangan nutqlarning mohiyati qisqacha bayon etiladi, shuningdek sessiya kun tartibidagi masalalar yuzasidan ovoz berish yakunlari qayd etiladi.

Sessiyaning bayonnomasiga Kengash deputatlari va taklif etilgan shaxslarning sessiyadagi ma'ruzalari matnlari, sessiyada hozir bo'lgan va qatnashmayotgan Kengash deputatlari ro'yxati, taklif etilgan shaxslar ro'yxati va boshqa materiallar ilova qilinadi.

Sessiya bayonnomasi yoki stenogrammasi sessiya tugaganidan so'ng uch kundan kechiktirmay tayyorlanadi va sessiya vaqtida raislik qilgan shaxs hamda kotib tomonidan imzolanadi.

Sessiya bayonnomasi va stenogrammasining asl nusxasi hokimlikning tashkiliy-nazorat guruhida saqlanadi.

Sessiya bayonnomasi yoki stenogrammasi Kengash deputatlarining talabiga binoan tanishib chiqish uchun ularga berilishi mumkin.

Yopiq sessiya bayonnomasi va stenogrammasi hokimlikning tegishli bo'limida «maxfiy hujjat» belgisi bilan saqlanadi.

Yopiq sessiya bayonnomasi va stenogrammasi unga umumlashtirilgan materiallar bilan Kengash deputatlarini tanishtirish bevosita hokimiyat apparatida tilxat olinib amalga oshiriladi.

21-modda. Sessiyada raislik qiluvchi:

sessiya ishining umumiy borishiga rahbarlik qiladi, xalq deputatlari Kengashining reglamentiga rioya etilishini ta'minlaydi;

ma'ruzachilar, qo'shimcha ma'ruzachilarga va muzokarlarda so'zga chiquvchilarga navbati bilan so'z beradi;

zarur hollarda sababini tushuntirib, so'zga chiqish tartibini o'zgartiradi;

muhokama qilinayotgan masala yuzasidan xohlagan paytda so'zga chiqishi mumkin;

xalq deputatlari Kengashining reglamentida belgilangan tartibni qo'pol ravishda buzgan Kengash deputati yoki ishtirokchini tartibga chaqiradi;

Kengash deputatlarining yozma so'rovlari, arizalari, takliflari, fikr-mulohazalarini o'qib eshittiradi;

Kengash deputatiga deputat so'rovi, savol, taklif, fikr-mulohaza yuzasidan so'zga chiqish, shuningdek sessiyani olib borish tartibi bo'yicha e'tirozlar bildirish uchun, qaror loyihalariga tuzatish, ovoz berish masalasi bo'yicha takliflar kiritish uchun uning iltimosiga ko'ra so'z beradi;

muhokama tugaganidan keyin qarorlar loyihalarini ovozga qo'yadi va ovoz berish natijalarini e'lon qiladi;

sessiyada qabul qilingan qarorlarni va sessiya bayonnomalarini imzolaydi;

muhokama jarayonida so'zga chiqqan Kengash deputatlari yoki boshqa ishtirokchilar fikrini biron-bir tarzda baholash yoxud sharhlashdan, shuningdek qaror qabul qilishda tazyiq o'tkazishdan o'zini tiyishi lozim.

Sessiyada raislik qiluvchi:

xalq deputatlari Kengashining reglamenti talablari qo'pol ravishda buzilgan taqdirda Kengash deputatini ogohlantirishga, takroran buzishga yo'l qo'yilganida esa, uni butun sessiya kuni davomida so'zdan mahrum qilishga;

sessiya ishiga xalaqit berayotgan taklif qilingan shaxslarni sessiya zalidan chiqarib yuborishga haqli.

22-modda. Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalarini va eng muhim muammolarni muhokama etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qo'mitalari (komissiyalari) va xalq deputatlari Kengashining qo'shma majlislari o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qo'mitasi (komissiyasi) va xalq deputatlari Kengashining qo'shma majlisi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qo'mitasining (komissiyasining) raisi va hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari o'rtasida kelishuv bo'yicha o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qo'mitasi (komissiyasi) va xalq deputatlari Kengashining qo'shma majlisi kun tartibidagi masalalar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qo'mitasi (komissiyasi) tomonidan xalq deputatlari Kengashining tegishli doimiy komissiyasi bilan hamkorlikda tayyorlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qo'mitasi (komissiyasi) va xalq deputatlari Kengashining qo'shma majlisini chaqirish, uni o'tkazish vaqti, sanasi va joyi hamda boshqa masalalar xalq deputatlari Kengashining reglamentiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qo'mitasining (komissiyasining) raisi va hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari o'rtasida kelishuv bo'yicha hal etiladi.

III bob. Sessiyada masalalarni ko'rib chiqish tartibi

23-modda. Xalq deputatlari Kengashi o'z sessiyalarida vakolatlari doirasida qonuniylik va huquqiy-tartibotni, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, tegishli hududning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish, mahalliy byudjetni shakllantirish hamda uni ijro etish, mahalliy soliq va boshqa majburiy to'lovlar miqdorlarini belgilash, atrof muhitni muhofaza qilish va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni ko'rib chiqadi hamda tegishli qarorlarni qabul qiladi.

24-modda. Sessiya muhokamasiga kiritilgan kun tartibidagi har bir masala, jumladan mahalliy byudjet to'g'risidagi va uning ijrosi haqidagi hisobot, hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari va uning o'rinbosarlari, hokimlik bo'limlari, boshqarmalari va boshqa bo'linmalari faoliyati haqidagi hisobotlar tinglanadi hamda erkin muhokama qilinadi.

Muhokama jarayoni mazkur masala yuzasidan hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari, uning o'rinbosarlari, doimiy komissiyalar raislarining ma'ruzalari va qo'shimcha ma'ruzalarini yoki Kengash deputatlarining ma'ruzalari va qo'shimcha

ma'ruzalarini tinglash, shuningdek taklif etilgan shaxslarning fikr bildirishi shaklida amalga oshiriladi.

Ayrim hollarda muhokama etilayotgan masalaning mazmunini hisobga olgan holda, sessiya mazkur masalaning mazmuniga doir qisqacha axborotni tinglab yoki doimiy komissiyalar raislari yoxud Kengash deputatlarining tushuntirishlari bilan cheklanib, uni muhokama etmasdan qaror qabul qilishi mumkin.

25-modda. Sessiyada raislik qiluvchi tomonidan ma'ruzachilar va qo'shimcha ma'ruzachilar bilan kelishuvga ko'ra, qoida tariqasida, ma'ruza uchun – 30 daqiqagacha, qo'shimcha ma'ruza uchun – 20 daqiqagacha va yakunlovchi so'z uchun 15 daqiqagacha vaqt belgilanadi.

Muzokaralarda so'zga chiquvchi Kengash deputatlariga 10 daqiqagacha vaqt beriladi. Muzokaralarda takroran so'zga chiqish uchun, shuningdek sessiya ishini olib borish tartibi, ovoz berish asoslari, nomzodlar bo'yicha so'zga chiqish uchun, arizalar, savollar, takliflar, xabarlar, ma'lumotlar uchun 3 daqiqagacha vaqt beriladi.

Sessiyada hozir bo'lgan Kengash deputatlari ko'pchiligining roziligi bilan raislik qiluvchi sessiya kun tartibiga kiritilgan masalani muhokama qilishning umumiy vaqtini, savollar va javoblar uchun ajratiladigan vaqtni belgilab qo'yishi, so'zlash vaqtini uzaytirishi mumkin.

Sessiyalarda Kengash deputati ayni bir masala bo'yicha muzokaralarda ko'pi bilan ikki marta so'zga chiqishi mumkin.

Muzokaralarni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin ma'ruzachi va qo'shimcha ma'ruzachi yakunlovchi so'zni aytish huquqiga ega.

Agar so'zga chiquvchi ajratilgan vaqtdan ortiq so'zlasa yoki muhokama etilayotgan masala yuzasidan fikr bildirmayotgan bo'lsa, sessiyada raislik qiluvchi uni avval ogohlantirib, keyin so'zdan mahrum qiladi.

IV bob. Sessiyada qarorlar qabul qilish va ularni e'lon qilish tartibi

26-modda. Sessiyada qarorlar ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadi. Zarur hollarda xalq deputatlari Kengashi qaroriga asosan yashirin ovoz berish o'tkazilishi mumkin.

Elektron ovoz berish tizimlari o'rnatilgan zallarda ochiq yoki yashirin ovoz berish elektron ovoz berish tizimidan foydalangan holda o'tkaziladi.

27-modda. Kengash deputati o'zining ovoz berish huquqini shaxsan amalga oshiradi.

Har bir Kengash deputati bir ovozga ega bo'ladi va muhokama qilinayotgan masala yuzasidan «yoqlayman», «qarshiman» yoki «betarafman» deb ovoz beradi.

Ovoz berish vaqtida hozir bo'lmagan Kengash deputati keyinchalik ovoz berishga haqli emas.

Ochiq ovoz berish ovozlar mutlaq ko'pchilikni tashkil etgan taqdirda ovozlarni sanamasdan, agar faqat Kengash deputatlaridan hech biri boshqacha tartibni taklif etmasa yoki ovozlarni qayta sanab chiqishni talab qilmasa, o'tkazilishi mumkin.

28-modda. Sessiyalarda yashirin ovoz berishni o'tkazish va uning natijalarini hisoblash uchun Kengash deputatlari orasidan sanoq komissiyasi saylanadi.

Sanoq komissiyasi o'z tarkibidan komissiya raisi va kotibini saylaydi. Sanoq komissiyasining qarorlari komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

29-modda. Sessiyada yashirin ovoz berishni byulletenlardan foydalangan holda o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ovoz berish uchun zarur axborotga ega bo'lgan yashirin ovoz berish byulletenlari sanoq komissiyasi nazorati ostida tayyorlanadi.

Yashirin ovoz berish o'tkaziladigan vaqti va joyi, uni o'tkazish tartibi sanoq komissiyasi tomonidan belgilanadi.

30-modda. Yashirin ovoz berish byulletenlar yordamida o'tkazilganida sanoq komissiyasi har bir Kengash deputatiga bittadan byulleten beradi.

Byulletenni to'ldirish Kengash deputati tomonidan yashirin ovoz berish kabinasida yoki xonasida byulletendagi o'zi yoqlab ovoz berayotgan nomzod familiyasining qarshisida o'ng tomonda joylashgan bo'sh katakka «+» yoki «ü» yoxud «x» qo'yish, qaror loyihasiga oid byulletenda esa, agar u tegishli qarorni yoqlab ovoz berayotgan bo'lsa, «qarshiman» degan so'zni o'chirish, taklif etilayotgan qarorga (qaror variantiga) qarshi ovoz berayotgan bo'lsa, yoxud «yoqlayman» degan so'zni o'chirish orqali amalga oshiriladi.

Belgilanmagan shakldagi byulletenlar, shuningdek Kengash deputatlarining xohish-irodasini aniqlashga imkon bermagan byulletenlar Kengash deputatlarining ovozlarni hisoblab chiqish vaqtida haqiqiy emas deb topiladi. Byulletenga kiritilgan qo'shimchalar ovozlarni hisoblab chiqish vaqtida e'tiborga olinmaydi.

31-modda. Agar sessiyada elektron ovoz berish tizimi yordamida yashirin ovoz berishni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, sanoq komissiyasi ovoz berish boshlanishidan oldin elektron tizimning sozligini tekshirishi hamda yashirin ovoz

berish uchun Kengash deputatlari umumiy soni bo'yicha kartochkalarining to'liq komplektini ro'yxatga olishi kerak.

32-modda. Ochiq yoki yashirin ovoz berish natijalari to'g'risida sanoq komissiyasi bayonnoma tuzadi, u komissiyaning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi.

Sanoq komissiyasining ma'ruzasiga asosan xalq deputatlari Kengashi yashirin ovoz berish natijalarini tasdiqlash to'g'risida ochiq ovoz berish yo'li bilan qaror qabul qiladi.

33-modda. Sessiyada qabul qilingan qarorlar raislik qiluvchi tomonidan imzolangan vaqtdan e'tiboran, agar hujjatning o'zida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Kengashi tomonidan o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlar tegishli hududda joylashgan barcha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Xalq deputatlari Kengashining qarorlari uning doimiy komissiyalariga, hokimlikning bo'limlari, boshqarmalari va boshqa tarkibiy bo'linmalari, tegishli davlat organlariga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslarga va quyi turuvchi hokimliklarga tarqatiladi.

Tegishli hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo'yicha sessiyada qabul qilingan qarorlar va boshqa muhim qarorlar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

V bob. Viloyat hokimi – xalq deputatlari Kengashining rahbarini tasdiqlash tartibi

34-modda. Viloyat hokimi – xalq deputatlari Kengashi rahbarining nomzodi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng xalq deputatlari viloyat Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

35-modda. Viloyat hokimi – xalq deputatlari Kengashi rahbarining nomzodini tasdiqlash to'g'risidagi masalani tegishli xalq deputatlari Kengashi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdimnoma kiritilgan kundan e'tiboran uch kun ichida ko'rib chiqadi.

36-modda. Viloyat hokimi – xalq deputatlari Kengashining rahbari lavozimiga nomzodga Kengash deputatlarining savollariga javob berish uchun 30 daqiqagacha vaqt ajratiladi. Nomzodni sessiyada muhokama qilish uchun 20 daqiqagacha vaqt ajratiladi.

37-modda. Xalq deputatlari Kengashining viloyat hokimi – xalq deputatlari Kengashining rahbari nomzodini tasdiqlash yoki rad etish to'g'risidagi qarori ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinib, kechi bilan uch kun ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

38-modda. Xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini olgan viloyat hokimi – xalq deputatlari Kengashi rahbarining nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi.

39-modda. Agar ovoz berish vaqtida viloyat hokimi –xalq deputatlari Kengashi rahbarining nomzodi xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mazkur lavozimlarga nomzodlarni partiya guruhlar bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng bir oy ichida yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega.

40-modda. Xalq deputatlari Kengashi taqdim etilgan viloyat hokimi – xalq deputatlari Kengashi rahbarining nomzodini uch marta rad etgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti viloyat hokimi vazifasini bajaruvchini tayinlash, tegishli xalq deputatlari Kengashini tarqatib yuborish huquqiga ega. Bunda xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch oy ichida o'tkaziladi.

VI bob. Tuman, shahar hokimi – xalq deputatlari Kengashining rahbarini tasdiqlash tartibi

41-modda. Tuman, shahar hokimi – xalq deputatlari Kengashi rahbarining nomzodlari viloyat hokimi tomonidan xalq deputatlari tuman, shahar Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

42-modda. Tuman, shahar hokimi – xalq deputatlari Kengashi rahbarining nomzodlarini tasdiqlash to'g'risidagi masala tegishli xalq deputatlari Kengashi viloyat hokimi tomonidan taqdimnoma kiritilgan kundan e'tiboran, qoida tariqasida, uch kun ichida ko'rib chiqiladi.

43-modda. Tuman, shahar hokimi – xalq deputatlari Kengashining rahbari lavozimiga nomzodga deputatlarning savollariga javob berish uchun 20 daqiqagacha vaqt ajratiladi. Nomzodni sessiyada muhokama qilish uchun 10 daqiqagacha vaqt ajratiladi.

44-modda. Xalq deputatlari Kengashining tuman, shahar hokimi – xalq deputatlari Kengashi rahbarining nomzodini tasdiqlash to'g'risidagi qarori ochiq ovoz berish yo'li bilan qabul qilinib, kechi bilan uch kun ichida viloyat hokimiga yuboriladi.

45-modda. Tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik

ovozini olgan tuman, shahar hokimi – xalq deputatlari Kengashi rahbarining nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi.

VII bob. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zolarini saylash tartibi

46-modda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zolari (bundan buyon matnda Senat a'zolari deb yuritiladi) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari deputatlarining qo'shma majlislarida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

47-modda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi (bundan buyon matnda Markaziy saylov komissiyasi deb yuritiladi) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga saylov yakunlari e'lon qilinganidan keyin uch kunlik muddatda Senat a'zolarini saylash uchun deputatlarning qo'shma majlislari (bundan buyon matnda qo'shma majlis deb yuritiladi) o'tkazilishini e'lon qiladi.

Markaziy saylov komissiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shuningdek Toshkent shahrida qo'shma majlislarni o'tkazish vaqti, sanasi va joyi ko'rsatilgan qarori ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

48-modda. Qo'shma majlis ochilishi oldidan Kengashlar deputatlari ro'yxatdan o'tkaziladi.

Agar qo'shma majlisda, Kengashlar deputatlari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi hozir bo'lsa, u vakolatli hisoblanadi.

Qo'shma majlis ishida Markaziy saylov komissiyasining vakili ishtirok etishi shart.

49-modda. Qo'shma majlisni Markaziy saylov komissiyasining vakili ochadi. U majlisda raislik qiluvchining nomzodi bo'yicha taklif kiritadi, bu nomzod eng obro'li, katta tajribaga ega, yoshi ulug' Kengashlar deputatlari orasidan tanlab olinadi.

Qo'shma majlis ishtirokchilari majlisning kun tartibini va ish reglamentini tasdiqlaydilar.

Qo'shma majlis kun tartibiga Senat a'zolarini saylash to'g'risidagi masala kiritiladi.

50-modda. Qo'shma majlis ishini ta'minlash va olib borish uchun ochiq ovoz berish orqali oddiy ko'pchilik ovoz bilan uch kishidan besh kishigacha bo'lgan ishchi hay'at tuziladi. Turli Kengashlar deputatlari orasidan hay'at a'zoliciga nomzodlar raislik qiluvchi tomonidan taklif etiladi.

51-modda. Kengash deputatlari vakolatlarini tekshirish, tushgan takliflarni hisobga olish va qo'shma majlis tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni rasmiylashtirish uchun uch kishidan iborat kotibiyat tuziladi.

52-modda. Qo'shma majlisda raislik qiluvchi taqdimiga muvofiq ochiq ovoz berish orqali oddiy ko'pchilik ovoz bilan Senat a'ziligiga nomzodlar ko'rsatish bo'yicha Maslahat kengashi (bundan buyon matnda Maslahat kengashi deb yuritiladi) saylanadi.

Maslahat kengashi deputatlik faoliyatida katta tajribaga ega bo'lgan eng obro'li, yoshi ulug' Kengashlarning deputatlaridan, qoida tariqasida, har bir xalq deputatlari Kengashidan bir nafar vakildan saylanadi.

53-modda. Maslahat kengashi eng obro'li, o'z saylovchilari tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotgan, davlat va jamiyat faoliyatining turli sohalarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan Kengashlar deputatlari orasidan Senat a'ziligiga nomzodlarni ko'rib chiqadi.

Yashirin ovoz berish byulleteniga kiritish uchun Senat a'ziligiga olti nafar nomzod bo'yicha Maslahat kengashining taklifi Maslahat kengashining raisi tomonidan o'qib eshittiriladi. Yashirin ovoz berish byulleteniga olti nafardan kam bo'lmagan Senat a'ziligiga nomzod kiritiladi.

54-modda. Saylov kuniga qadar yigirma besh yoshga to'lgan va kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining deputati Senat a'ziligiga nomzod bo'lishi mumkin.

55-modda. Qo'shma majlisda Senat a'ziligiga har bir nomzod bo'yicha alohida muhokama o'tkaziladi.

Qo'shma majlisda ishtirok etayotgan har bir Kengash deputati Senat a'ziligiga nomzodga savollar berish, nomzod xususida o'z fikrini bildirish huquqiga ega.

Senat a'ziligiga har bir nomzod bo'yicha alohida muhokamadan keyin uni yashirin ovoz berish byulleteniga kiritish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Taklif etilgan u yoki bu nomzodlar rad etilgan taqdirda, muhokama etish va yashirin ovoz berish byulleteniga kiritish uchun boshqa nomzodni faqat Maslahat kengashi ko'rsatishi mumkin.

Senat a'ziligiga nomzodlarni muhokama qilish qo'shma majlis qaroriga binoan tugallanadi.

Deputatlarning qo'shma majlisida ishtirok etayotgan Kengashlar deputatlarining ko'pchilik ovozini olgan Senat a'ziligiga nomzod yashirin ovoz berish byulleteniga kiritilgan hisoblanadi.

56-modda. Yashirin ovoz berish uchun byulletenning namunasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Yashirin ovoz berish byulletenida uni to'ldirish tartibi haqida tushuntirish berilgan bo'lishi lozim. Byulletenning old tomonida o'ng yuqori burchakda muhr va kamida ikki nafar sanoq komissiyasi a'zosining imzosi bo'lishi kerak.

57-modda. Yashirin ovoz berishni o'tkazish va uning natijalarini aniqlash uchun qo'shma majlisda ishtirok etayotgan Kengashlar deputatlari orasidan to'qqiz nafargacha a'zodan, shu jumladan, komissiya raisi va kotibidan iborat tarkibda sanoq komissiyasi saylanadi.

Sanoq komissiyasining tarkibiga Senat a'ziligiga nomzod saylanishi mumkin emas.

Sanoq komissiyasi:

Senat a'zolarini saylash bo'yicha ovoz berishni tashkil qiladi va o'tkazadi;

qo'shma majlis ishtirokchilariga yashirin ovoz berishni o'tkazish vaqti, joyi va tartibini e'lon qiladi;

yashirin ovoz berish byulletenlarini ularga Senat a'ziligiga har bir nomzodning familiyasi, ismi va otasining ismini alifbo tartibida kiritish yo'li bilan, tug'ilgan sanasi, lavozimi (mashg'ulotining turi) va ish joyini ko'rsatgan holda tayyorlaydi;

ovoz beruvchilarning ro'yxatini aniqlaydi, ularga yashirin ovoz berish byulletenlarini beradi;

yashirin ovoz berish byulletenlarining old tomoniga muhr qo'yadi va yashirin ovoz berish byulletenida sanoq komissiyasi a'zolarining imzolari bo'lishini ta'minlaydi;

ovozlarni sanab chiqadi va yashirin ovoz berish natijalari to'g'risida bayonnoma tuzadi;

yashirin ovoz berish natijalarini qo'shma majlis tasdig'iga kiritadi.

58-modda. Yashirin ovoz berish boshlanishidan oldin sanoq komissiyasining raisi yashirin ovoz berishni o'tkazish tartibini e'lon qiladi, komissiya a'zolari hozirligida saylov qutisini tekshiradi va muhrlaydi.

Saylov qutisi uning yoniga ovoz beruvchilar albatta yashirin ovoz berish kabinasi yoki

xonasidan o'tib boradigan qilib joylashtiriladi.

Qo'shma majlisda ishtirok etayotgan Kengash deputati sanoq komissiyasi a'zosiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatadi hamda ovoz beruvchilar ro'yxatiga imzo chekadi, shundan keyin unga yashirin ovoz berish byulleteni beriladi.

Yashirin ovoz berish byulleteni ovoz beruvchi tomonidan yashirin ovoz berish kabinasi yoki xonasida o'zi yoqlab ovoz berayotgan Senat a'ziligiga nomzodlarning familiyalari qarshisida o'ng tomonda joylashgan bo'sh katakka «+» yoki «ü» yoxud «x» qo'yish yo'li bilan to'ldiriladi.

Ovoz beruvchi to'ldirilgan yashirin ovoz berish byulletenini ko'rinarli joyda turishi lozim bo'lgan saylov qutisiga tashlaydi.

Buzib qo'yilgan yashirin ovoz berish byulleteni ovoz beruvchining iltimosiga ko'ra yangisiga almashtirilishi mumkin.

Yashirin ovoz berish jarayoni tugallangandan keyin, foydalanilmagan, shuningdek buzib qo'yilgan yashirin ovoz berish byulletenlari ularga maxsus shtamp qo'yish yo'li bilan bekor qilinadi, shundan so'ng ular muhrlanadi va alohida saqlanadi.

59-modda. Ovozlarini sanab chiqish sanoq komissiyasi a'zolari tomonidan yashirin ovoz berish natijalari aniqlangunga qadar tanaffussiz amalga oshiriladi.

Saylov qutisidagi yashirin ovoz berish byulletenlariga asosan sanoq komissiyasi ovoz berishda ishtirok etgan Kengashlar deputatlarining umumiy sonini, Senat a'ziligiga har bir nomzodni yoqlab berilgan ovozlar sonini, haqiqiy emas deb topilgan byulletenlar sonini aniqlaydi.

Ovoz beruvchilar tomonidan saylov byulleteniga qo'shimcha yozib qo'yilgan fuqarolarning familiyalari bo'yicha berilgan ovozlar hisobga olinmaydi.

Belgilanmagan namunadagi yashirin ovoz berish byulletenlari, ovoz berish vaqtida bitta ham katakka «+» yoki «ü» yoxud «x» qo'yilmagan byulletenlar, shuningdek old tomonida muhr va sanoq komissiyasi a'zolarining imzolari bo'lmagan byulletenlar haqiqiy emas deb topiladi.

Ovoz berish natijalariga ko'ra ovoz berishda qatnashgan Kengashlar deputatlari ovozining ellik foizidan ortig'ini olgan Senat a'ziligiga nomzodlar saylangan deb hisoblanadi.

Yashirin ovoz berish natijalari bo'yicha bayonnoma tuzilib, u sanoq komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi. Bayonnomaning qalamda to'ldirilishiga va unga hech qanday tuzatishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Sanoq komissiyasi raisining ma'ruzasi bo'yicha qo'shma majlisda yashirin ovoz berish natijalarini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilinib, u qo'shma majlisning Senat a'zolari saylovining yakunlari to'g'risidagi bayonnomasida aks ettiriladi.

Qo'shma majlisning Senat a'zolari saylovining yakunlari to'g'risidagi bayonnomasi ikki nusxada tuzilib, raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi.

Bayonnomaning qalamda to'ldirilishiga va unga birorta tuzatish kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Agar ovoz berishda yashirin ovoz berish byulleteniga kiritilgan nomzodlardan kimdir saylanmagan bo'lsa, bo'sh qolgan o'rinlarga Senat a'zolarini qo'shimcha saylash uchun yangi saylov tayinlanadi.

Senat a'zolarini qo'shimcha saylash bo'yicha qo'shma majlis asosiy saylov o'tkazilganidan so'ng ikki kun ichida o'tkaziladi. Qo'shma majlisning o'tkazilish vaqti, sanasi va joyi qo'shma majlis qarori bilan belgilanadi.

60-modda. Saylangan Senat a'zolarini ro'yxatdan o'tkazish uchun qo'shma majlisning Senat a'zolari saylovining yakunlari to'g'risidagi bayonnomasi ikki kunlik muddatdan kechiktirmay Markaziy saylov komissiyasiga topshiriladi.

Qo'shma majlisning Senat a'zolari saylovining yakunlari to'g'risidagi bayonnomasining ikkinchi nusxasi va Senat a'zolari saylovini o'tkazish bilan bog'liq boshqa hujjatlar tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar Kengashlari arxivlarida saqlanadi.

VIII bob. Hokimning viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotini tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan eshitish tartibi

601-modda. Viloyat, tuman va shahar hokimining viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisoboti (bundan buyon matnda hokim hisoboti deb yuritiladi) har yili tegishli xalq deputatlari Kengashining viloyat, tuman, shaharning o'tgan yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari va joriy yilga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisida eshitiladi. Mazkur majlis viloyatlarda va Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli majlisi o'tkazilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay, tumanlar va shaharlarda esa viloyatlarda tegishli majlislar o'tkazilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay o'tkaziladi.

Sessiyani o'tkazish, masalalarni ko'rib chiqish va qarorlarni qabul qilish tartibi ushbu

bobning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ushbu Namunaviy reglamentning II-IV-boblari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

602-modda. Hokimning hisobotini eshitish yuzasidan sessiyalarni chaqirish to'g'risidagi qaror hokim o'rinbosarlaridan biri tomonidan qabul qilinadi.

603-modda. Hokimlik apparatining tegishli tarkibiy bo'linmasi hokimning hisobotiga doir materiallarni hokim hisobotini eshitishga o'n kun qolgunga qadar xalq deputatlari Kengashining hisobotda bayon qilingan masalalar vakolat doirasiga kiritilgan doimiy komissiyasiga (bundan buyon matnda mas'ul doimiy komissiya deb yuritiladi) taqdim etadi.

604-modda. Hisobotda hokim va mahalliy ijroiya hokimiyati organlari tomonidan:

hudud iqtisodiyotining barqaror o'sishini, uning tarmoqlari rivojlanishini ta'minlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, chet el investitsiyalarini jalb qilish, eksport hajmini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;

qonun hujjatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim davlat dasturlari va hududiy dasturlarni bajarish;

ijtimoiy sohani rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlash, uy-joylar qurish va aholi punktlarini obodonlashtirish, ta'lim hamda sog'liqni saqlash sifatini yaxshilash, tegishli viloyat, tuman va shaharning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishiga oid boshqa masalalarni hal qilish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

605-modda. Hokim hisoboti bo'yicha xalq deputatlari Kengashi qarori loyihasi yuzasidan nuqtai nazarni shakllantirish va takliflar olish maqsadida hokimning hisobotiga doir materiallar olingan kuni mas'ul doimiy komissiya tomonidan xalq deputatlari Kengashidagi partiya guruhlarining vakillariga va xalq deputatlari Kengashi deputatlariga yuboriladi.

606-modda. Hokim hisobotini eshitish to'g'risidagi masalani tayyorlash va sessiya muhokamasiga kiritish mas'ul doimiy komissiya tomonidan amalga oshiriladi. Zarurat bo'lganda mas'ul doimiy komissiya hokim hisobotini eshitish to'g'risidagi masalani atroflicha tayyorlash uchun boshqa doimiy komissiyalarni ham jalb etishi mumkin.

607-modda. Hokim hisoboti bo'yicha materiallarni umumlashtirish uchun mas'ul doimiy komissiya tomonidan tegishli soha mutaxassislarini jalb etgan holda ishchi guruh tashkil etiladi.

Hokim hisobotiga doir materiallarni umumlashtirish natijalari bo'yicha mas'ul doimiy

komissiya tomonidan tegishli xalq deputatlari Kengashi partiya guruhlarining fikr-mulohazalarini hisobga olgan holda doimiy komissiya xulosasi va xalq deputatlari Kengashi qarori loyihasi tayyorlanadi.

608-modda. Hokimning hisobotini eshitishda xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining raqobatlashayotgan partiya guruhlarini rahbarlaridan biri sessiyaga raislik qiladi.

609-modda. Hokimning hisobotini eshitish uchun ma'ruzachi bilan kelishilgan holda kamida 30 daqiqa beriladi.

Hokimning hisoboti bo'yicha mas'ul doimiy komissiya xulosasining mazmunini va xalq deputatlari Kengashi qarori loyihasining asosiy qoidalarini bayon etish maqsadida mas'ul doimiy komissiyaning raisiga 15 daqiqagacha vaqt beriladi.

Partiya guruhlarini vakillariga va tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlariga ma'ruzachiga savol berishi uchun 3 daqiqagacha va hisobot bo'yicha muzokaralar uchun 10 daqiqagacha vaqt beriladi.

6010-modda. Viloyat va Toshkent shahar hokimining hisobotini eshitishga tegishli viloyatlar va Toshkent shahridan saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolari, davlat boshqaruvi organlari rahbarlari, tumanlar va shaharlar hokimlari, viloyat va Toshkent shahar ijroiya hokimiyati organlari tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari taklif etiladi.

Tuman va shahar hokimining hisobotini eshitishga tegishli saylov okruglaridan saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari va xalq deputatlari viloyat Kengashlari deputatlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, davlat boshqaruvi organlarining vakillari, viloyat hokimi yoki uning o'rinbosarlari, tuman va shahar ijroiya hokimiyati organlari tarkibiy bo'linmalarining rahbarlari taklif etiladi.

Viloyat, tuman, shahar hokimining hisobotini eshitishga tegishli hududda joylashgan boshqa davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, korxonalarining, muassasalarning, tashkilotlarning, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlarining, siyosiy partiyalarning, ommaviy axborot vositalarining vakillari va boshqa shaxslar taklif etilishi mumkin.

6011-modda. Viloyat va Toshkent shahar hokimining hisobotini muhokama qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisida berilgan baholar va belgilangan vazifalar hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Tuman va shahar hokimining hisobotini muhokama qilish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek xalq deputatlari viloyat Kengashlarining majlislarida berilgan baholar va belgilangan vazifalar hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

6012-modda. Viloyat, tuman, shahar hokimining hisobotini muhokama qilish yakunlari bo'yicha, shuningdek doimiy komissiya xulosasi va partiya guruhlari fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda tegishli xalq deputatlari Kengashining qarori qabul qilinadi. Qarorda tegishli hokim va mahalliy ijroiya hokimiyati organlari ishining samaradorligiga kompleks baho beriladi, ularning ishini takomillashtirishga doir tavsiyalar va takliflar, shuningdek qaror amalga oshirilishining borishi ustidan nazoratni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar nazarda tutiladi.

6013-modda. Hokimning hisoboti bo'yicha qarorning ijro etilishini nazorat qilish mas'ul doimiy komissiyaning zimmasiga yuklatiladi.

6014-modda. Hokimning hisoboti bo'yicha xalq deputatlari Kengashining qarori va hokimning hisoboti mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy nashrlarida hamda veb-saytlarida e'lon qilinishi shart.

6015-modda. Mas'ul doimiy komissiya hokimning hisoboti bo'yicha xalq deputatlari Kengashining qarori ijro etilishini monitoring qiladi va qarorda belgilangan muddatlarda tegishli xalq deputatlari Kengashini xabardor qiladi.

VII2 BOB. Saylov komissiyalarining a'ziligiga nomzodlarni tanlab olish va taqdim etish

6016-modda. Yigirma besh yoshga to'lgan, qoida tariqasida, oliy ma'lumotga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini va davlat hokimiyatining vakillik organlariga saylovni tashkil etish va o'tkazish borasida ish tajribasiga ega bo'lgan, jamoatchilik o'rtasida obro'-e'tibor qozongan hamda kamida oxirgi besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Markaziy saylov komissiyasining a'zosi bo'lishi mumkin.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining Qonuniylikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi o'zining majlisida Markaziy saylov komissiyasi a'ziligiga nomzodlarni dastlabki tarzda tanlab oladi va taqdim etadi, materiallarni ko'rib chiqadi va ular bo'yicha xulosalar tayyorlaydi, ma'qullash va xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi, shuningdek xalq deputatlari viloyat Kengashining Markaziy saylov komissiyasi a'ziligiga nomzodlarni taqdim etish to'g'risidagi qarori loyihasini ishlab chiqadi.

Markaziy saylov komissiyasi tarkibiga kirish huquqiga ega ekanligi haqida qaror qabul qilingan nomzodlar alifbo tartibida ovoz berish uchun ro'yxatga kiritiladi xalq deputatlari viloyat Kengashining ko'rib chiqishi uchun kiritiladi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining sessiyasida muhokama o'tkaziladi va muhokamada deputatlar Markaziy saylov komissiyasi a'ziligiga ko'rsatilgan nomzodga savollar berishga haqli.

Muhokama natijalari bo'yicha xalq deputatlari viloyat Kengashining nomzodni Markaziy saylov komissiyasi a'ziligiga tavsiya etish to'g'risidagi qarori qabul qilinadi hamda ko'rib chiqish uchun Oliy Majlisga yuboriladi.

Qaror xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

6017-modda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov bo'yicha okrug saylov komissiyalariga nomzodlar yigirma besh yoshga to'lgan, qoida tariqasida, oliy ma'lumotga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini va davlat hokimiyatining vakillik organlariga saylovni tashkil etish va o'tkazish borasida ish tajribasiga ega bo'lgan, jamoatchilik o'rtasida obro'-e'tibor qozongan hamda kamida oxirgi besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari orasidan tanlab olinadi va taqdim etiladi.

Okrug saylov komissiyalari a'ziligiga nomzodlar xalq deputatlari viloyat Kengashining Qonuniylikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasining majlisida dastlabki tarzda muhokama etiladi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi doimiy komissiyasining majlisida komissiya raisining tashabbusi bilan jalb qilingan okrug saylov komissiyalari a'ziligiga nomzodlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar ishtirok etishlari mumkin.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi doimiy komissiyasi materiallarni ko'rib chiqadi, nomzodlar bo'yicha xulosalarni hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining okrug saylov komissiyasi a'ziligiga nomzodlarni tavsiya etish to'g'risidagi qarori loyihasini tayyorlaydi. Dastlabki tarzda muhokama natijalariga ko'ra, ushbu masalani ma'qullash hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritish to'g'risidagi tegishli doimiy komissiyaning qarori qabul qilinadi.

Okrug saylov komissiyasi tarkibiga kirish huquqiga ega ekanligi haqida qaror qabul qilingan nomzodlar alifbo tartibida ovoz berish uchun ro'yxatga kiritiladi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining sessiyasida muhokama o'tkaziladi va

muhokamada deputatlar okrug saylov komissiyasi a'ziligiga ko'rsatilgan nomzodlarga savol berishga haqli.

Muhokama natijalari bo'yicha xalq deputatlari viloyat Kengashining nomzodni okrug saylov komissiyasi a'ziligiga tavsiya etish to'g'risidagi qarori qabul qilinadi hamda tasdiqlash uchun Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi.

Qaror xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

6018-modda. Xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylovlar bo'yicha viloyat va okrug saylov komissiyalari a'ziligiga nomzodlar yigirma besh yoshga to'lgan, qoida tariqasida, oliy ma'lumotga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini va davlat hokimiyatining vakillik organlariga saylovni tashkil etish va o'tkazish borasida ish tajribasiga ega bo'lgan, jamoatchilik o'rtasida obro'-e'tibor qozongan hamda kamida oxirgi besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari orasidan tanlab olinadi hamda taqdim etiladi.

Viloyat va okrug saylov komissiyalari a'ziligiga nomzodlar xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari Qonuniylikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha doimiy komissiyaning majlisida dastlabki tarzda muhokama etiladi.

Doimiy komissiya majlisida xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari komissiyasi raisining tashabbusiga ko'ra jalb qilingan viloyat va okrug saylov komissiyalari a'ziligiga nomzodlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar ishtirok etishlari mumkin.

Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining tegishli doimiy komissiyasi materiallarni ko'rib chiqadi, nomzodlar bo'yicha xulosalar hamda xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining nomzodlarni viloyat va okrug saylov komissiyalari a'ziligiga tavsiya etish to'g'risidagi qarori loyihasini tayyorlaydi. Dastlabki tarzda muhokama natijalari bo'yicha ushbu masalani ma'qullash va xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi navbatdagi sessiyasining kun tartibiga kiritish to'g'risidagi doimiy komissiyaning qarori qabul qilinadi.

Viloyat va okrug saylov komissiyalari tarkibiga kirish huquqiga ega ekanligi haqida qaror qabul qilingan nomzodlar alifbo tartibida ovoz berish uchun ro'yxatga kiritiladi.

Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining sessiyasida muhokama o'tkaziladi va muhokamada deputatlar viloyat va okrug saylov komissiyalari a'ziligiga ko'rsatilgan nomzodlarga savollar berishga haqli.

Muhokama natijalari bo'yicha xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining nomzodni viloyat saylov komissiyasi a'ziligiga tavsiya etish to'g'risidagi qarori qabul qilinadi

hamda tasdiqlash uchun xalq deputatlari viloyat Kengashiga yuboriladi.

Muhokama natijalari bo'yicha qabul qilingan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining nomzodni okrug saylov komissiyalari a'ziligiga tavsiya etish to'g'risidagi qarori esa, tasdiqlash uchun xalq deputatlari viloyat Kengashlariga o'tkaziladigan saylovlar bo'yicha viloyat komissiyasiga yuboriladi.

Qarorlar xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

6019-modda. Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashiga saylovlar bo'yicha tuman, shahar saylov komissiyalari a'ziligiga nomzodlar yigirma besh yoshga to'lgan, qoida tariqasida, oliy ma'lumotga, saylovlarni tashkil etish va o'tkazish borasida ish tajribasiga ega bo'lgan, jamoatchilik o'rtasida obro'-e'tibor qozongan hamda kamida oxirgi besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashab turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari orasidan tanlab olinadi hamda taqdim etiladi.

Tuman, shahar saylov komissiyasi a'ziligiga nomzodlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tanlanadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ko'rib chiqish natijalari bo'yicha xalq deputatlari tuman, shahar Kengashiga taqdim etish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashining Qonuniylikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining tuman va shahar saylov komissiyasi a'ziligiga nomzodlar to'g'risidagi qarorini dastlabki tarzda ko'rib chiqib, uni xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritishni tavsiya etadi.

Tegishli doimiy komissiyalar raislarining axboroti bo'yicha xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi xalq deputatlari tuman, shahar Kengashiga saylovlar bo'yicha saylov komissiyasi a'zolarini tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

VIII bob. Doimiy va muvaqqat komissiyalar

61-modda. Xalq deputatlari Kengashi sessiyaga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash uchun o'z vakolatlari muddatiga jamoatchilik asosida faoliyatni amalga oshiruvchi doimiy va muvaqqat komissiyalar tuzishi hamda ular tarkibiga o'zgartishlar kiritishi mumkin.

Doimiy va muvaqqat komissiyalar raisligiga hamda a'ziligiga nomzodlar sessiyaga hokim - xalq deputatlari Kengashining rahbari tomonidan taqdim etiladi.

Doimiy komissiya raisligiga nomzod bo'yicha ovoz berish alohida o'tkaziladi.

Doimiy va muvaqqat komissiyalar a'zolari tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari orasidan saylanadi.

Doimiy va muvaqqat komissiyalar a'ziligiga nomzodlarni saylash nomzodlarning har birini alohida yoki komissiyaning butun tarkibni yalpi muhokama qilish yo'li bilan amalga oshiriladi, ovoz berishda qaror har bir nomzod bo'yicha alohida yoki komissiya butun tarkibi bo'yicha Kengash deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

62-modda. Doimiy komissiyalar soni va tarkibi sessiyada belgilanadi. Xalq deputatlari Kengashi tarkibida, qoida tariqasida, quyidagi doimiy komissiyalar tuzilishi mumkin:

mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha;

qonuniylikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha;

ijtimoiy-madaniy rivojlanish, yoshlar siyosati va sog'lom avlodni tarbiyalash masalalari bo'yicha;

sanoat, transport, qurilish, kommunal masalalari va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha;

agrар, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya bo'yicha;

nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari masalalari bo'yicha;

reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha.

Zarur hollarda xalq deputatlari Kengashi tomonidan yangi doimiy komissiyalar tuzilishi va ilgari tashkil qilingan doimiy komissiyalar tugatilishi, doimiy komissiyalar tarkibiga o'zgartishlar kiritilishi mumkin.

Doimiy komissiyalar faoliyati xalq deputatlari Kengashi qarori bilan tasdiqlanadigan Xalq deputatlari Kengashining doimiy komissiyalari to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi.

63-modda. Doimiy komissiyalar o'z majlislarida rais o'rinbosarlari va kotiblarini saylaydi.

Xalq deputatlari Kengashining deputati faqat bitta doimiy komissiya a'zosi etib saylanishi mumkin. Doimiy komissiya tarkibiga kirmagan Kengash deputati uning ishida maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etishi mumkin.

Doimiy komissiyalar xalq deputatlari Kengashi oldida mas'ul va unga hisobdordir.

64-modda. Doimiy komissiyalar o'z faoliyatini xalq deputatlari Kengashi qarori bilan tasdiqlanadigan ish rejalari asosida amalga oshiradi.

Doimiy komissiyaning sessiyalar oralig'ida o'tkaziladigan majlislarida ish rejasiga tegishli o'zgartishlar kiritilishi mumkin, keyinchalik ular sessiya tasdig'iga kiritiladi.

65-modda. Doimiy komissiyalar o'z faoliyatini majlis shaklida amalga oshiradi.

Doimiy komissiyalarning majlislari, qoida tariqasida, oyda kamida bir marta o'tkaziladi.

Doimiy komissiyalarning qo'shma majlislari ular o'rtasidagi kelishuvga muvofiq o'tkaziladi.

66-modda. Xalq deputatlari Kengashi aniq vazifalarni bajarish uchun Kengash deputatlari orasidan muvaqqat komissiya tuzishi mumkin.

Muvaqqat komissiya tuzish to'g'risidagi qaror sessiyada qabul qilinadi.

Muvaqqat komissiya zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarganidan so'ng o'z faoliyatini tugatadi.

Muvaqqat komissiyaning vazifalari xalq deputatlari Kengashi qarori bilan belgilanadi.

67-modda. Doimiy va muvaqqat komissiyalarning tegishli hududdagi davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslarga yuboriladigan qarorlari tavsiya xususiyatiga ega bo'ladi va ular tomonidan ko'rib chiqilib, ko'rib chiqish natijalari to'g'risida yoki ko'rilgan chora-tadbirlar haqida bir oylik muddatda xabar qilinishi shart.

IX bob. Deputatlik faoliyatini amalga oshirish shakllari

68-modda. Kengash deputatining har biri sessiya, doimiy va muvaqqat komissiyalar ishida tashabbuskorlik va faollik bilan qatnashishi lozim. Kengash deputati o'z vakolatlarini ishlab chiqarishdan yoki xizmat vazifalaridan ajralmagan holda amalga oshiradi.

69-modda. Har bir deputatlar guruhi sessiya muhokamasiga kiritilayotgan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va ular yuzasidan takliflar kiritish huquqiga ega.

Deputatlar guruhi tuzish to'g'risidagi ariza va boshqa hujjatlar sessiyaga taqdim etiladi. Deputatlar guruhi o'z faoliyatini sessiyada deputatlar guruhini ro'yxatga olish

to'g'risida qaror qabul qilinganidan so'ng boshlaydi.

Deputatlar guruhi doimiy komissiyalar bilan o'zaro hamkorlikda ish olib boradi.

70-modda. Partiya guruhlarini siyosiy partiyalardan ko'rsatilgan Kengash deputatlarining ta'xis yig'ilishlarida o'z partiyalarining siyosatini uyushgan holda o'tkazish uchun tuziladi. Partiya guruhlarini partiya guruhi rahbarining tegishli arizasi va ta'xis hujjatlariga asosan xalq deputatlari Kengashi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Partiya guruhlarini quyidagi huquqlarga ega:

sessiya kun tartibini shakllantirishda ishtirok etish;

sessiya kun tartibidagi har bir masala bo'yicha muzokaralarda partiya guruhi vakiliga kafolatlangan tarzda so'z berilishi;

hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbariga, hokim o'rinbosarlariga, hokimlikning bo'lim va boshqarmalari boshliqlariga, shuningdek tegishli xalq deputatlari Kengashi hududida joylashgan korxonalar, muassasa va tashkilotlarning rahbarlariga so'rovlar bilan murojaat etish;

doimiy va muvaqqat komissiyalar raisligiga nomzodlar bo'yicha takliflar kiritish;

sessiyada muhokama qilinayotgan masala bo'yicha partiya guruhining fikrini Kengash deputatlari orasida tarqatish;

viloyat hokimi – xalq deputatlari Kengashi rahbarining lavozimiga tasdiqlangan shaxslarning qoniqarsiz faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga asoslangan xulosalar taqdim etish tashabbusi;

xalq deputatlari Kengashi deputatlari uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshirish.

Partiya guruhlarining faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa xizmatlar ko'rsatish hokimlikning tashkiliy-nazorat guruhi tomonidan ta'minlanadi.

71-modda. Kengash deputati sessiyada ko'rib chiqilayotgan barcha masalalar bo'yicha hal qiluvchi ovoz huquqidan foydalanadi.

Kengash deputati:

doimiy hamda muvaqqat komissiyalarga saylash va saylanishga;

sessiyada ko'rib chiqilishi uchun masalalar taklif etishga;

sessiya kun tartibi, muhokama qilinayotgan masalalarni ko'rib chiqish tartibi va

mohiyati yuzasidan takliflar va mulohazalar kiritishga;

xalq deputatlari Kengashi tomonidan saylanadigan, tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan mansabdor shaxslarning nomzodlari bo'yicha fikr bildirishga;

muzokaralarda ishtirok etishga, ma'ruzachi, qo'shimcha ma'ruzachi va sessiyada raislik qiluvchiga savollar berishga;

deputat so'rovi bilan murojaat etishga;

o'z takliflarini asoslab berish uchun so'zga chiqishga va ovoz berish sabablari yuzasidan ma'lumot berishga;

sessiyada raislik qiluvchiga sessiyada muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z nutqi, taklifi yoki mulohazasining matnini topshirishga;

tarkibiga o'zi kirgan xalq deputatlari Kengashi organining qaroriga qo'shilmagan taqdirda o'z nuqtai nazarini sessiyada bayon qilishga yoki bu haqda Kengash rahbariga yozma shaklda ma'lum qilishga;

xalq deputatlari Kengashiga hisobdor bo'lgan yoki uning nazorati ostidagi har qanday organ yoxud mansabdor shaxsning hisoboti yoki axborotini sessiyalarda eshitish to'g'risida taklif kiritishga;

O'zbekiston Respublikasi qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarining ijro etilishi, shuningdek xalq deputatlari Kengashi qarorlarining bajarilishi yuzasidan tekshirishlar o'tkazish to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqilishi uchun taklif etishga;

sessiya bayonnomasi va stenogrammasi bilan belgilangan tartibda tanishishga haqli.

Kengash deputati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

72-modda. Kengash deputati:

sessiya samarali ishlashiga ko'maklashishi, sessiya vaqtini tejashi;

xalq deputatlari Kengashining reglamentiga rioya qilishi va sessiyada raislik qiluvchining talablarini bajarishi;

faqat sessiyada raislik qiluvchining ruxsati bilangina so'zga chiqishi;

Deputatlik odobi qoidalariga rioya qilishi;

sessiyada ishtirok etishi va uning ishida faol qatnashishi;

o'zi tarkibiga saylangan doimiy yoki muvaqqat komissiyalar majlislarida ishtirok etishi;

xalq deputatlari Kengashining reglamentida belgilangan tartibda ovoz berishda shaxsan ishtirok etishi shart.

Kengash deputati sessiyada, o'zi tarkibiga kirgan doimiy yoki muvaqqat komissiya majlisida ishtirok etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, bu haqda tegishincha hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbariga, sessiyada raislik qiluvchiga yoxud doimiy yoki muvaqqat komissiya raisiga oldindan xabar qilishi shart.

73-modda. Kengash deputati tegishli hududda joylashgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki o'z nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan deputat so'rovi yuborishga haqli.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari deputat so'roviga mazkur so'rov olingan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay javob yuborishlari shart.

Sudlarning raislari, prokurorlar, surishtiruv va tergov organlarining rahbarlariga yo'llangan deputat so'rovi ularning ish yurituvidagi aniq ishlar va materiallarga taalluqli bo'lishi mumkin emas.

Deputat so'rovlari bo'yicha axborot sessiyada yoki doimiy yoxud muvaqqat komissiyalar majlisida muhokama qilinishi mumkin.

74-modda. Kengash deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi masala tegishli hudud prokurori yoki yuqori turuvchi prokurorning taqdimnomasiga binoan xalq deputatlari Kengashi tomonidan o'n kun ichida hal etiladi. Senator etib saylangan Kengash deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum qilish masalasi «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatining va Senati a'zosining maqomi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan tartibda hal etiladi.

Kengash deputatini jinoiy javobgarlikka tortish, ushlab turish, qamoqqa olish yoki unga nisbatan sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni qo'llashga rozilik olish to'g'risidagi prokuror taqdimnomasi xalq deputatlari Kengashi tomonidan sessiyada ko'rib chiqiladi, sessiyalar oralig'idagi davrda esa hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari yoki uning vazifasini bajaruvchi mansabdor shaxs tomonidan ko'rib chiqilib, qabul qilingan qaror keyinchalik tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari Kengashining Kengash deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berish masalasiga doir qarori tegishli prokurorga darhol yuboriladi.

Xalq deputatlari Kengashining Kengash deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berishni rad etishi unga nisbatan jinoyat ishini yuritishni yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni nazarda tutadigan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishni istisno etadigan va bunday ishlarni tugatishga sabab bo'ladigan holat hisoblanadi.

75-modda. Kengash deputati Deputatlik odobi qoidalariga qat'iy rioya etishi lozim. Kengash deputatining o'z maqomidan fuqarolar, jamiyat va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazadigan tarzda foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Deputatlik odobi qoidalari buzilgan taqdirda Kengash deputatining xulq-atvori to'g'risidagi masala xalq deputatlari Kengashi tomonidan yoxud uning topshirig'iga ko'ra reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiya tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.

X bob. Yakunlovchi qoidalar

76-modda. Xalq deputatlari Kengashi faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa xizmat ko'rsatish tegishli hokimlik apparati tomonidan ta'minlanadi.

77-modda. Tegishli hokimliklar Kengash deputatini hujjatlar, zarur axborot va ma'lumot materiallari, shuningdek deputatlik faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mutaxassislarning maslahatlari bilan ta'minlaydi.

Kengash deputatiga texnik vositalar, aloqa vositalari va ma'lumotlar bazalaridan foydalanish uchun shart-sharoit yaratiladi.

78-modda. Xalq deputatlari Kengashining reglamenti, unga o'zgartishlar va qo'shimchalar xalq deputatlari Kengashi qarori bilan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari Kengashining reglamentiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi takliflar doimiy komissiyalar, deputatlar guruhlari, partiya guruhlari, Kengash deputatlari tomonidan kiritilishi mumkin va sessiya kun tartibi loyihasiga kiritiladi hamda birinchi navbatda ko'rib chiqiladi.

79-modda. Xalq deputatlari Kengashining reglamentida nazarda tutilmagan xalq deputatlari Kengashi faoliyatiga doir masalalarni sessiyada ko'rib chiqish tartib-taomillari sessiyada Kengash deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, bayonnoma tarzida rasmiylashtiriladi va qabul qilingan kundan e'tiboran amal

qiladi.

* Mazkur Reglamentga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2015 yil 22 iyundagi KQ-28–III-sonli qarori bilan o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2017 yil 30 iyundagi KQ-203–III-sonli qarori bilan qo'shimcha kiritilgan.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2018 yil 25 maydagi KQ-354–III-sonli Qarori bilan o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2019 yil 18 iyundagi KQ-550–III-sonli Qarori bilan o'zgartishlar kiritilgan.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining

2020 yil 13 yanvardagi 1-sessiyasining
№ 1/VI-1-sonli qaroriga 2- ilova

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining

doimiy komissiyalari to'g'risidagi

namunaviy nizom

I bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, xalq deputatlari Kengashining reglamenti asosida ishlab chiqilgan va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlarining (bundan buyon matnda xalq deputatlari Kengashi deb yuritiladi) doimiy komissiyalarini shakllantirish va ishini tashkil qilish tartibini, ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari hamda vakolatlarini belgilaydi.

«Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq xalq deputatlari Kengashi sessiyasi muhokamasiga kiritiladigan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish va tayyorlash, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, xalq deputatlari Kengashining qarorlari hayotga tatbiq etilishiga ko'maklashish, o'z vakolatlari doirasida nazorat vazifalarini amalga oshirish

uchun xalq deputatlari Kengashi o'z vakolatlari muddatiga xalq deputatlari Kengashi deputatlari (bundan buyon matnda Kengash deputatlari deb yuritiladi) orasidan xalq deputatlari Kengashi doimiy komissiyalarini (bundan buyon matnda doimiy komissiyalar deb yuritiladi) saylaydi.

2. Doimiy komissiyalar o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi, «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashi deputatining maqomi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida, shuningdek xalq deputatlari Kengashining reglamenti va xalq deputatlari Kengashi doimiy komissiyalari to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshiradi.

3. Doimiy komissiyalar xalq deputatlari Kengashining sessiyasida (bundan buyon matnda sessiya deb yuritiladi) Kengash deputatlari orasidan rais va a'zolaridan iborat tarkibda saylanadi. Doimiy komissiyalar o'z faoliyatlarini jamoatchilik asosida amalga oshiradilar.

4. Kengash deputati faqat bitta doimiy komissiya a'zosi etib saylanishi mumkin.

Doimiy komissiya tarkibiga kirmagan Kengash deputati uning ishida maslahat ovozi huquqi bilan ishtirok etishi mumkin.

Hokim – xalq deputatlari Kengashining rahbari doimiy komissiyalar tarkibiga saylanishi mumkin emas.

5. Doimiy komissiyalar raislari va a'ziligiga nomzodlar sessiyaga hokim – xalq deputatlari Kengashi rahbari tomonidan taqdim qilinadi.

Doimiy komissiya raisligiga nomzod bo'yicha ovoz berish alohida o'tkaziladi.

Doimiy komissiyalar a'ziligiga nomzodlarni saylash nomzodlarning har birini alohida yoki doimiy komissiyaning butun tarkibini yalpi muhokama qilish yo'li bilan amalga oshiriladi, ovoz berishda qaror har bir nomzod bo'yicha alohida yoki doimiy komissiyaning butun tarkibi bo'yicha Kengash deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

6. Doimiy komissiyalar o'z majlislarida ochiq ovoz berish yo'li bilan doimiy komissiya a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan rais o'rinbosarlarini va kotiblarini saylaydi.

7. Doimiy komissiyalarning barcha a'zolari teng huquqlardan foydalanadi.

8. Doimiy komissiyalar xalq deputatlari Kengashi oldida mas'ul va hisobdordir.

9. Kengash deputatining doimiy komissiyadagi vakolatlari uning iltimosiga ko'ra, shuningdek uning o'z vazifalarini bajarishga imkon bermaydigan holatlar munosabati

bilan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin.

Doimiy komissiya raisining taklifi bo'yicha doimiy komissiya tarkibidagi o'zgartishlar sessiyada ko'rib chiqiladi.

10. Doimiy komissiyalar soni va tarkibi sessiyada belgilanadi.

Xalq deputatlari Kengashi tarkibida, qoida tariqasida, quyidagi doimiy komissiyalar tuzilishi mumkin:

mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha;

qonuniylikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha;

ijtimoiy-madaniy rivojlanish, yoshlar siyosati va sog'lom avlodni tarbiyalash masalalari bo'yicha;

sanoat, transport, qurilish, kommunal xo'jaligi masalalari va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha;

agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya bo'yicha;

nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari masalalari bo'yicha;

reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha.

Zarur hollarda xalq deputatlari Kengashi tomonidan yangi doimiy komissiyalar tuzilishi va ilgari tashkil qilingan doimiy komissiyalar tugatilishi, doimiy komissiyalarning tarkibiga o'zgartishlar kiritilishi mumkin.

II bob. Doimiy komissiyalar faoliyatining asosiy yo'nalishlari

11. Mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiya:

mahalliy byudjet loyihasi, unga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqidagi takliflar, shuningdek mahalliy byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi, boshqa doimiy komissiyalar bilan birgalikda xulosalar tayyorlaydi, mazkur masalalar yuzasidan sessiyada ma'ruzalar va qo'shimcha ma'ruzalar bilan chiqadi;

iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda va tadbirkorlikni rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi, o'z vakolatlari doirasida takliflar kiritadi;

tadbirkorlik sohasida xususiy va oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish infratuzilmasini shakllantirishga, tadbirkorlik sub'ektlari uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etishga, yangi ish o'rinlari yaratishga ko'maklashadi;

byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish masalalarini o'rganadi, ular bo'yicha tavsiyalar tayyorlaydi;

mahalliy byudjet ijrosi, byudjetdan tashqari va maqsadli fondlardan maqsadli foydalanish tartibi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

mahalliy byudjetning qo'shimcha daromad zaxiralari va manbalarini aniqlash bo'yicha ish olib boradi;

mahalliy soliqlar va mahalliy byudjetga tushadigan boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarning miqdorlarini belgilash va berish masalalarini ko'rib chiqadi va xulosalar beradi;

hokimlikning tuzilishi, shtatlari va xodimlarining mehnatiga haq to'lash fondi to'g'risidagi hokim – xalq deputatlari Kengashi rahbari taqdimnomasini dastlabki tarzda ko'rib chiqadi;

xalq deputatlari Kengashining rejalashtirish va byudjet-moliyaviy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa masalalarni ko'rib chiqishda qatnashadi;

o'z vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi, tavsiyalar beradi va zarur hollarda xalq deputatlari Kengashi qarorlarining loyihalarini sessiyada ko'rib chiqish uchun kiritadi.

12. Qonuniylikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha doimiy komissiya:

xalq deputatlari Kengashi tomonidan rejalashtirilayotgan dasturlarni, shuningdek viloyat, tuman, shahar hududida (bundan buyon matnda tegishli hududda deb yuritiladi) qonuniylikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va fuqarolarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

tegishli hududda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holatini kompleks o'rganadi hamda ushbu sohadagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

korruptsiya ko'rinishlarining namoyon bo'lishiga olib keladigan tizimli muammolar haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining

Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo'mitasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasiga muntazam ravishda axborot kiritib boradi;

o'z vakolatiga taalluqli bo'lgan xalq deputatlari Kengashining dasturlari va hokim qarorlari loyihalarini ko'rib chiqishda qatnashadi va xulosalar beradi;

hokimlik bo'limlari va boshqarmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining komissiya vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha axborotini eshitadi, tavsiyalar kiritadi va ularning ijrosini nazorat qiladi;

hokim – xalq deputatlari Kengashi raisining O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi, xalq deputatlari viloyat Kengashining doimiy komissiyasi esa tegishli viloyat hududida joylashgan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi qarorlarini bekor qilish to'g'risidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi;

ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi, tegishli hududda jamoat tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi;

fuqarolar va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tegishli hududda qonuniylik hamda inson huquqlarining buzilishi masalalariga oid murojaatlarini ko'rib chiqadi, shuningdek tegishli davlat organlariga so'rovlar yuboradi va doimiy komissiya qarorlarining bajarilishini nazorat qiladi;

o'z vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi, tavsiyalar beradi va zarur hollarda xalq deputatlari Kengashi qarorlarining loyihalarini sessiyada ko'rib chiqish uchun kiritadi.

13. Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, yoshlar siyosati va sog'lom avlodni tarbiyalash masalalari bo'yicha doimiy komissiya:

tegishli hududni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish dasturlarining loyihalarini, shuningdek ularning bajarilishi haqidagi hisobotlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi, boshqa doimiy komissiyalar bilan birgalikda xulosalar tayyorlaydi, mazkur masalalar yuzasidan sessiyada ma'ruza va qo'shimcha ma'ruzalar bilan chiqadi;

tegishli hududni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish dasturlari bajarilishi ustidan nazoratni

amalga oshiradi;

hokimlik bo'lim va boshqarmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining komissiya vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha axborotini eshitadi, tavsiyalar beradi va ularning ijrosini nazorat qiladi;

an'anaviy xalq ijodiyoti markazlari, aholining milliy-madaniy an'analari, badiiy hunarmandchilikni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishga ko'maklashadi;

tibbiy yordam ko'rsatish sifatini yaxshilash, mahalliy davolash-profilaktika muassasalarini, shu jumladan tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

farmatsevtika sohasi samarali faoliyat yuritishi bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

tegishli hududda aholining ijtimoiy himoyalanganlik holatini tahlil qiladi, aholining ijtimoiy himoyalanganligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi;

byudjet mablag'lari va korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlarning xayriya badallari hisobidan aholini ijtimoiy himoya qilishning qo'shimcha kafolatlarini belgilashda ishtirok etadi;

nogironlar, urush va mehnat faxriylari, ko'p bolali oilalar hamda keksa fuqarolarning uy-joy va moddiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash bo'yicha qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashadi;

mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek ishga joylashtirish tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

o'z vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi, tavsiyalar beradi va zarur hollarda xalq deputatlari Kengashi qarorlarining loyihalarini sessiyada ko'rib chiqish uchun kiritadi.

yoshlar siyosati va sog'lom avlodni tarbiyalash sohasidagi dasturlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi va ishlab chiqishda qatnashadi;

ta'lim tizimining holatini tahlil va nazorat qiladi, ta'lim sifatini yanada yaxshilash, maktablar, litseylar, kollejlarda va oliy o'quv yurtlarida o'quv-tarbiya jarayonini demokratlashtirishni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar kiritadi;

ta'lim muassasalari tarmog'ini rivojlantirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayoni qatnashchilarini sog'lomlashtirish va moddiy rag'batlantirish masalalarini hal qilishga ko'maklashadi, ta'lim sohasi xodimlarining ijtimoiy

masalalarini hal qilish uchun pul mablag'lari ajratilishi tashabbusi bilan chiqadi;

kadrlar tayyorlashni yaxshilash, tegishli hududning intellektual salohiyatini saqlab qolish maqsadida xalq deputatlari Kengashining oliy o'quv yurtlari bilan hamkorligi masalalarini dastlabki tarzda o'rganadi va uni kuchaytirish bo'yicha takliflar kiritadi;

jismoniy tarbiya va sport muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sportni rivojlantirish, shuningdek aholi turar joylarida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish uchun sharoitlar yaratish masalalarini o'rganadi;

yoshlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ularni ishga joylashtirish, yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha muammolarni tahlil qiladi va bu boradagi chora-tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashadi;

madaniyat muassasalari tarmog'ini rivojlantirishga ko'maklashadi, ularning yoshlarni estetik tarbiyalashdagi rolini oshirish bo'yicha takliflar kiritadi;

yoshlar bilan ishlashning shakl va usullarini takomillashtirish bilan bog'liq masalalarni xalq deputatlari Kengashi tomonidan tayyorlashda va ko'rib chiqishda takliflar kiritadi;

hokimlik bo'lim va boshqarmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining komissiya vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha axborotini eshitadi, tavsiyalar beradi va ularning ijrosini nazorat qiladi;

bola huquqlarini himoya qilish, voyaga yetmaganlar ustidan vasiylik va homiylik, yoshlarni kasbga yo'naltirish bo'yicha ishlarni nazorat qiladi;

o'z vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi, tavsiyalar beradi va zarur hollarda xalq deputatlari Kengashi qarorlarining loyihalarini sessiyada ko'rib chiqish uchun kiritadi.

14. Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo'jaligi masalalari va aholiga xizmat ko'rsatish bo'yicha doimiy komissiya:

tegishli hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining sanoat, transport, qurilish, kommunal xo'jaligi va aholiga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish qismini dastlabki tarzda ko'rib chiqadi va tayyorlashda qatnashadi;

tegishli hududning bosh rejasi va qurilish qoidalari loyihalarini ko'rib chiqishda ishtirok etadi;

kommunal soha, transport va aloqa holatini o'rganadi, aholiga kommunal va maishiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, shahar transportini rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritadi;

hokimlik bo'lim va boshqarmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining komissiya vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha axborotini eshitadi, tavsiyalar beradi va ularning ijrosini nazorat qiladi;

savdo, umumiy ovqatlanishni tashkil qilish, iste'mol bozorlari faoliyati bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi;

bozorlar ishini optimallashtirish, sanoat va oziq-ovqat mollarini realizatsiya qilish, tegishli hududda yarmarkalar tashkil qilish bo'yicha takliflar kiritadi;

yoqilg'i-energetika ta'minoti, suv ta'minoti, oqova suvlarni chetga chiqarib yuborish va tozalash, maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish va utilizatsiya qilish masalalarini ko'rib chiqadi;

o'z vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi, tavsiyalar beradi va zarur hollarda xalq deputatlari Kengashi qarorlarining loyihalarini sessiyada ko'rib chiqish uchun kiritadi.

15. Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya bo'yicha doimiy komissiya:

agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya bo'yicha dasturlarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi va tayyorlashda qatnashadi;

yerdan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va qayta ishlov berish, tabiiy muhitni yaxshilash bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy-xo'jalik sharoitlari masalalarini ko'rib chiqadi;

dehqon va fermer xo'jaliklari, sanoat korxonalarini, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalarini o'rganadi va ularni mustahkamlash bo'yicha takliflar kiritadi;

tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

qishloq xo'jaligi hamda dehqon va fermer xo'jaliklarini samarali rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha takliflar kiritadi;

o'z hududidagi suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilashda, shuningdek suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish va ularni muhofaza qilish sohasida qonuniylik hamda huquq-tartibotni ta'minlashda ishtirok etadi;

suv ob'ektlari holatini saqlash va yaxshilash, ularga zararli ta'sir ko'rsatilishini oldini olish va bartaraf etish, shuningdek avariylar, toshqin, sel va tabiiy ofatlar natijasida

vayron bo'lgan ob'ektlarni tiklash yuzasidan takliflar kiritadi;

zarur hollarda qonun hujjatlariga muvofiq ekologik ekspertiza o'tkazish bo'yicha takliflar kiritadi;

hokimlik bo'lim va boshqarmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlarining komissiya vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha axborotini eshitadi, tavsiyalar beradi va ularning ijrosini nazorat qiladi;

o'z vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi, tavsiyalar beradi va zarur hollarda xalq deputatlari Kengashi qarorlarining loyihalarini sessiyada ko'rib chiqish uchun kiritadi.

16. Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari masalalari bo'yicha doimiy komissiya:

xalq deputatlari Kengashi tomonidan rejalashtirilayotgan dasturlarni, shuningdek tegishli hududda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlariga taalluqli masalalar bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

tegishli hududda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishga, davlat tuzilmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishga ko'maklashadi;

tegishli hududda qonunlar, davlat va hududiy dasturlar, shuningdek mahalliy Kengash va hokim qarorlarining ijro etilishi yuzasidan deputatlik va jamoatchilik nazoratini ta'minlaydi;

nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga doir masalalar yuzasidan tegishli hududdagi mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining axborotini eshitib boradi;

o'z vakolatiga taalluqli bo'lgan xalq deputatlari Kengashining dasturlari va hokimlik qarorlari loyihalarini ko'rib chiqishda qatnashadi va xulosalar beradi;

tegishli hududdagi mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi samaradorligini oshirish yuzasidan tahlillar olib boradi va tegishli takliflar tayyorlaydi;

ommaviy axborot vositalari, siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi, tegishli hududda jamoat tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqadi;

o'z vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi, tavsiyalar beradi va zarur hollarda xalq deputatlari Kengashi qarorlarining loyihalarini sessiyada ko'rib chiqish uchun kiritadi.

17. Reglament va deputatlik odobi masalalari bo'yicha doimiy komissiya:

Kengash deputatining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shu jumladan uni chaqirib olish to'g'risidagi, Kengash deputatini jinoiy javobgarlikka tortishga, ushlab turishga, qamoqqa olishga yoki unga nisbatan sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni qo'llashga tegishincha viloyat, tuman, shahar prokurorining taqdimnomasi bo'yicha rozilik berish haqidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi va xalq deputatlari Kengashi tomonidan ko'rib chiqishga tayyorlaydi;

xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalari, boshqa organlarini tashkil qilish va tugatish haqidagi masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqadi;

xalq deputatlari Kengashining topshirig'iga muvofiq Kengash deputati tomonidan qonun hujjatlari, axloq normalari va Deputatlik odobi qoidalarini buzish faktlari bo'yicha materiallarni ko'rib chiqadi hamda mazkur masala bo'yicha xulosa taqdim qiladi;

xalq deputatlari Kengashining reglamenti loyihasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun kiritadi, shuningdek unga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida takliflar tayyorlaydi;

xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalari to'g'risidagi nizomlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Deputatlik odobi qoidalari loyihasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun sessiyaga kiritadi, shuningdek unga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida takliflar tayyorlaydi;

saylovchilarning deputatlar tomonidan Deputatlik odobi qoidalarini buzish bilan bog'liq shikoyatlarini ko'rib chiqadi;

Kengash deputatlari, boshqa shaxslar tomonidan xalq deputatlari Kengashining reglamenti normalariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi va uni buzish holatlari mavjud bo'lganda, ularni bartaraf qilish choralarini ko'radi;

o'z vakolatiga taalluqli boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi, tavsiyalar beradi va zarur hollarda xalq deputatlari Kengashi qarorlarining loyihalarini sessiyada ko'rib chiqish uchun kiritadi.

III bob. Doimiy komissiyalar ishini tashkil etish

18. Doimiy komissiyalar o'z faoliyatlarini sessiyada tasdiqlanadigan ish rejalari asosida amalga oshiradilar. Doimiy komissiyaning ish rejasi xalq deputatlari Kengashining ish rejasi bilan belgilangan tegishli hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish faoliyatining asosiy yo'nalishlariga muvofiq ishlab chiqiladi.

Doimiy komissiyaning tashabbusi bilan doimiy komissiyaning ish rejasiga tegishli o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Doimiy komissiyaning ish rejasidagi o'zgartishlar navbatdagi sessiyada tasdiqlanadi.

19. Doimiy komissiyalar o'z ishlarini masalalarni birgalikda, erkin muhokama qilish va hal etish, oshkoralik hamda doimiy komissiyalar a'zolarining keng tashabbuskorligi asosida tashkil etadilar.

20. Doimiy komissiyalar o'z faoliyatlarini majlis shaklida amalga oshiradilar.

Doimiy komissiyalarning majlislari, qoida tariqasida, oyda kamida bir marta o'tkaziladi.

Doimiy komissiyaning majlislari rais, rais yo'qligida esa rais o'rinbosarining tashabbusi bilan, shuningdek komissiya a'zolari ko'pchiligi tomonidan chaqirilishi mumkin.

Doimiy komissiyalarning qo'shma majlislari ular o'rtasidagi kelishuvga muvofiq o'tkaziladi.

21. Doimiy komissiyalar majlislarida ish davlat tilida olib boriladi.

22. Doimiy komissiyalarning majlislari, basharti ularda doimiy komissiya tarkibining yarmidan ko'pi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi.

Doimiy komissiya a'zosi majlisda ishtirok etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, bu haqda doimiy komissiya raisiga oldindan xabar qilishi shart.

23. Doimiy komissiyalar majlislari kun tartibi loyihasiga doimiy komissiyalar ish rejalaridagi masalalar, xalq deputatlari Kengashi qarorlarida belgilangan masalalar, shuningdek doimiy komissiyalar a'zolari tomonidan taklif qilingan masalalar kiritiladi.

Kun tartibi loyihasi va majlisni olib borish tartibi doimiy komissiya raisi tomonidan e'lon qilinadi va muhokama qilingandan so'ng tasdiqlanadi.

24. Doimiy komissiya majlislarida bayonnomalar yuritiladi.

Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

doimiy komissiyaning nomi, majlisning tartib raqami;

majlis o'tkaziladigan vaqt, sana va joy;

hozir bo'lgan va qatnashmayotgan doimiy komissiya a'zolarining soni, shuningdek taklif etilgan shaxslar soni;

majlisning kun tartibi, majlisda ko'rib chiqish uchun kiritilgan har bir masala yuzasidan har bir ma'ruzachi hamda qo'shimcha ma'ruzachining familiyasi va lavozimi;

kun tartibiga muvofiq muhokama qilinayotgan masalalarning mohiyati;

«yoqlayman», «qarshiman» yoki «betarafman» deb berilgan ovozlar soni ko'rsatilgan, qabul qilingan qarorlar ro'yxati.

Majlis bayonnomasiga majlisda hozir bo'lgan va qatnashmayotgan doimiy komissiya a'zolari ro'yxati, taklif etilgan shaxslar ro'yxati, ma'ruzalar matnlari va boshqa materiallar ilova qilinadi.

Doimiy komissiya majlisining bayonnomasi majlis tugaganidan so'ng uch kundan kechiktirmay rasmiylashtiriladi. Bayonnoma komissiya raisi yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs va doimiy komissiya kotibi tomonidan imzolanadi.

25. Doimiy komissiya majlisini samarali olib borish uchun, qoida tariqasida, ma'ruza uchun 20 daqiqa doirasida, qo'shimcha ma'ruza uchun 10 daqiqagacha, muzokarlarda so'zga chiquvchilarga 5 daqiqadan 7 daqiqagacha, axborot yoki ma'lumot berish uchun esa 3 daqiqagacha qadar vaqt beriladi.

26. Doimiy komissiyalarning majlislari ochiq o'tkaziladi. Doimiy komissiya yopiq yoki sayyor majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Majlislarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zolari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining deputatlari, shuningdek tegishli hududda joylashgan davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalarining taklif qilingan vakillari va boshqa shaxslar ishtirok etishi mumkin.

Majlisga taklif etilgan shaxslar muhokama etilayotgan masalalar yuzasidan qaror qabul qilishda ovoz berish huquqiga ega emas, shuningdek ular raislik qiluvchining farmoyishlariga bo'ysunishlari shart.

Majlisga taklif qilinayotgan shaxslarning soni va tarkibi doimiy komissiya raisi tomonidan hal etiladi.

Majlisda raislik qiluvchi majlisga taklif qilingan shaxslar tarkibi va soni to'g'risida doimiy komissiya a'zolarini xabardor qiladi.

27. Doimiy komissiyalar masalalarni tayyorlash va ularni puxta ishlab chiqish uchun Kengash deputatlari orasidan, davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari, mutaxassislar va olimlardan iborat ishchi guruhlar tuzishga haqli.

28. Doimiy komissiyalar o'zlariga taalluqli masalalarni ko'rib chiqish vaqtida teng huquqlardan foydalanadilar va bir xil majburiyatlarga egadirlar.

29. Doimiy komissiyalarning a'zolari komissiyalar faoliyatida ishtirok etishlari, ularning qarorlarini hayotga tatbiq etishga ko'maklashishlari, doimiy komissiyalarning topshiriqlarini bajarishlari shart. Doimiy komissiyalar a'zolari har chorakda doimiy komissiya raisiga doimiy komissiya ish rejasida nazarda tutilgan tadbirlarning ijro etilishi bo'yicha o'z faoliyati yakunlari va deputatlik vazifalarini bajarish natijalari to'g'risida yozma hisobotlar taqdim etadilar.

Doimiy komissiyalar a'zolari o'z vakolatlarini ishlab chiqarish yoki xizmat faoliyatidan ajralmagan holda amalga oshiradilar. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning rahbarlari doimiy komissiyalar a'zolarini ular o'z deputatlik vazifalarini bajaradigan vaqtda, ularning ish joyini (lavozimini) saqlagan holda, ishdan ozod qilishlari shart. Deputatlik vazifalarini bajarayotgan vaqtda doimiy komissiyalar a'zolarining o'rtacha ish haqi saqlanib qoladi.

30. Doimiy komissiyaning a'zosi ko'rib chiqilayotgan masalalar bo'yicha hal qiluvchi ovoz huquqidan foydalanadi, ularni tayyorlash, muhokama qilish va qarorlar qabul qilishda, shuningdek xalq deputatlari Kengashining, doimiy komissiyaning qarorlari bajarilishini tashkil etishda ishtirok etadi. Doimiy komissiyaning har bir a'zosi bir ovozga ega va muhokama qilinayotgan masala yuzasidan «yoqlayman», «qarshiman» yoki «betarafman» deb ovoz beradi. Doimiy komissiya majlisida ishtirok etayotgan doimiy komissiyaning har bir a'zosi muhokama qilinayotgan masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etishga majbur.

31. Doimiy komissiya a'zosiga doimiy komissiya tomonidan ko'rib chiqilayotgan barcha masalalarni hal etishda faol ishtirok etish uchun sharoit yaratib beriladi, unga zarur hujjatlar yoki boshqa materiallar oldindan yuboriladi. Doimiy komissiya a'zolari doimiy komissiya majlisi o'tkaziladigan vaqt, sana, joy va kun tartibi to'g'risida oldindan xabardor qilinadi.

Doimiy komissiya a'zolari doimiy komissiya tomonidan joylarda ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan masalalarni hokim – xalq deputatlari Kengashi rahbari, doimiy komissiya raisining topshirig'iga binoan yoki o'z tashabbusi bilan o'rganadi, ushbu masala yuzasidan davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolardan kelgan

takliflarni umumlashtiradi, ularni doimiy komissiya majlisida muhokama qiladi va takliflar kiritadi.

32. Bir nechta doimiy komissiyalarga taalluqli masalalar doimiy komissiyalar tomonidan birgalikda tayyorlanishi va ko'rib chiqilishi mumkin.

Doimiy komissiyalarning qo'shma majlislarini doimiy komissiyalar raislari o'zaro kelishuv asosida olib boradilar.

Doimiy komissiya o'zi ko'rib chiqayotgan masalalar yuzasidan boshqa doimiy komissiyalarning fikrini so'rab olishi mumkin.

Boshqa doimiy komissiyalarning iltimosiga binoan doimiy komissiya o'ziga taalluqli masalalar bo'yicha ushbu doimiy komissiyalar tomonidan ko'rib chiqilayotgan masalalarni tayyorlashda ishtirok etishi mumkin.

33. Ayni bir masala bo'yicha doimiy komissiyalarning fikri turlicha bo'lgan taqdirda ular kelishmovchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'radilar. Agar murosaga kelinmasa, ushbu masalani tayyorlashga mas'ul bo'lgan doimiy komissiyaning qarori uzil-kesil hisoblanadi.

34. Doimiy komissiyalarda barcha masalalar doimiy komissiya a'zolari umumiy tarkibining ko'pchilik ovozi bilan hal etiladi.

Bir nechta doimiy komissiyalarning qo'shma majlislari o'tkazilganda qaror har bir doimiy komissiyada kvorum mavjud bo'lgan holda majlisda qatnashayotgan doimiy komissiyalar a'zolari umumiy tarkibining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

35. Doimiy komissiyalar ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lgan qarorlar qabul qiladi yoki xalq deputatlari Kengashi qaror loyihalari bo'yicha o'ziga taalluqli masalalar yuzasidan xulosalar beradi.

36. Doimiy komissiyalarning qarorlari, xulosalari va bayonnomalari doimiy komissiya raisi tomonidan imzolanadi.

Doimiy komissiyalar tomonidan qabul qilingan qo'shma qarorlar, ular tomonidan birgalikda tayyorlangan xulosalar, shuningdek qo'shma majlislarining bayonnomalari ularning raislari tomonidan imzolanadi.

37. Doimiy komissiyalar tomonidan qabul qilingan qarorlar tegishli davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

38. Doimiy komissiyalarning qarorlari qaysi davlat organlari, korxonalar, muassasalar,

tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslarga nisbatan qabul qilingan bo'lsa, ular tomonidan ko'rib chiqilishi shart.

Doimiy komissiya qarorida boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, ko'rib chiqish natijalari yoki ko'rilgan choralar haqida doimiy komissiyalarga bir oylik muddatda xabar qilinishi lozim. Doimiy komissiyalar qarorlarini ko'rib chiqish yakunlari doimiy komissiyalar majlislarida, zarur hollarda esa sessiyalarda ko'rib chiqiladi. Zarur hollarda doimiy komissiya majlisida uning qarori ijro etilishi muddatini uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin.

39. Doimiy komissiya qarorlarining bajarilishining borishi yuzasidan nazorat doimiy komissiya raisi yoki qarorda ko'rsatilgan doimiy komissiya a'zosi tomonidan amalga oshiriladi.

IV bob. Doimiy komissiyalarning vakolatlari

40. Doimiy komissiyalar sessiyalar kun tartibiga doir takliflarni shakllantirishda ishtirok etadilar.

41. Doimiy komissiyalar o'zlariga taalluqli masalalar bo'yicha davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslardan hujjatlar, yozma xulosalar, hisobot ma'lumotlari va boshqa materiallarni so'rab olishga haqli.

42. Doimiy komissiyalar tegishli hududda joylashgan davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rahbarlarini o'z majlislariga taklif etish hamda ularning xalq deputatlari Kengashi qarorlari va doimiy komissiyalar tavsiyalarining bajarilishi to'g'risidagi axborotini tinglash huquqiga ega.

Doimiy komissiyalar tegishli organlar va tashkilotlarni ko'rib chiqiladigan masalalar xususida oldindan xabardor qiladilar.

43. Doimiy komissiyalar o'rganib chiqish uchun o'zlariga berilgan masalalarni dastlabki tarzda ko'rib chiqish yakunlari yuzasidan xalq deputatlari Kengashiga o'z qarorlari yoki xulosalarini taqdim etadilar.

44. Xalq deputatlari Kengashining topshirig'iga binoan, doimiy komissiyalar Kengash deputatlari bildirgan takliflar, tanqidiy mulohazalar va so'rovlarning amalga oshirilishini nazorat qiladilar.

45. Doimiy komissiya raisi:

zarur materiallar tayyorlanishini tashkil etadi, komissiya majlisini chaqiradi, majlis haqida komissiya a'zolari va boshqa ishtirokchilarni xabardor qiladi;

doimiy komissiya majlislarida raislik qiladi;

doimiy komissiyaning ish rejasi loyihasining tayyorlanishini tashkil etadi;

doimiy komissiya a'zolari, shu jumladan rais o'rinbosari va doimiy komissiya kotibi o'rtasida ishlarni taqsimlaydi hamda ular faoliyatini yo'naltiradi;

doimiy komissiya a'zolariga topshiriqlar beradi, ularga doimiy komissiyaning faoliyati bilan bog'liq materiallar va hujjatlarni yuboradi;

doimiy komissiya a'zolarini ishchi guruhlarining ishida qatnashish, shuningdek doimiy komissiyaning boshqa topshiriqlarini bajarish uchun taklif qiladi;

davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillarini, mutaxassislar va olimlarni doimiy komissiya ishida ishtirok etish uchun taklif qiladi;

sessiyalarda, davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan bo'ladigan munosabatlarda doimiy komissiya nomidan vakillik qiladi;

doimiy komissiya faoliyati to'g'risida hisobot tayyorlaydi va sessiyada hisobot beradi;

doimiy komissiya qarorlarining ijro etilishi yuzasidan ishlarni tashkil etadi;

xalq deputatlari Kengashiga, hokimga – xalq deputatlari Kengashi rahbariga ularning topshiriqlari bajarilishi yuzasidan axborot beradi;

doimiy komissiya a'zolarini ular tomonidan qabul qilingan qarorlar bajarilganligi va tavsiyalari ko'rib chiqilganligi to'g'risida xabardor qiladi;

boshqa doimiy komissiyalar bilan birgalikda ishlar olib borilishini tashkil qiladi;

doimiy komissiya majlisi qarorlari, xulosalari va bayonnomalarini imzolaydi;

o'z vakolati doirasida boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

46. Doimiy komissiya raisining o'rinbosari raisning topshirig'iga ko'ra uning ayrim vazifalarini bajaradi va rais yo'qligida yoki uning o'z vazifalarini amalga oshirishga imkoni bo'lmagan hollarda rais vazifasini bajaradi.

47. Doimiy komissiya kotibi:

doimiy komissiya ish rejasining loyihasini tayyorlaydi;

doimiy komissiya ish rejasining bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

doimiy komissiya ish yurituvi uchun javob beradi, hokimlikning tegishli bo'limiga hujjatlarni saqlash uchun o'rnatilgan tartibda topshiradi;

doimiy komissiya majlisi bayonnomasini yuritadi va uni imzolaydi;

doimiy komissiya faoliyati bilan bog'liq boshqa vazifalarni bajaradi.

V bob. Yakunlovchi qoidalar

48. Doimiy komissiyalar faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa jihatlardan xizmat ko'rsatish tegishli hokimlik apparati tomonidan ta'minlanadi.

49. Tegishli hokimliklar doimiy komissiyalarni hujjatlar, zarur axborot va ma'lumot materiallari, shuningdek doimiy komissiyalar faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha mutaxassislarining maslahatlari bilan ta'minlaydi.

50. Doimiy komissiyalar to'g'risidagi nizomni qabul qilish, unga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish masalalari yuzasidan qarorlar sessiyada Kengash deputatlari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

* Mazkur Nizomga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2018 yil 25 maydagi KQ-354-III-sonli Qarori bilan o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2019 yil 18 iyundagi KQ-550-III-sonli Qarori bilan o'zgartishlar kiritilgan.